

ONA TILI DARSLARIDA QADRIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Muxtorova Madina Baxtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili darslari jarayonida o'quvchilarda qadriyatga oid tushunchalarni shakllantirishning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Unda qadriyatlar ta'limining shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligidagi o'rni, shuningdek, til ta'limi orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning metodik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda psixologik yondashuvlar (Piagetning kognitiv rivojlanish g'oyalari, Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi), pedagogik tamoyillar (faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik, izchillik) hamda tilshunoslik nuqtayi nazaridan qadriyatlarning lisoniy ifodalanish mexanizmlari umumlashtiriladi. Shuningdek, interaktiv, loyihaviy va adabiy-tahliliy usullar, darsliklar, audio-vizual materiallar hamda IT vositalari orqali qadriyatlar mazmunini singdirishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi. Maqolada aksiologik nazariyalar doirasida qadriyat-baholash munosabatlari, individual qadriyatlar masalasi va qadriyatlarning ijtimoiy me'yor sifatidagi xususiyatlari ham asoslanadi. Natijada ona tili ta'limida qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan darsni rejalashtirish va baholash bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *ona tili darsi, qadriyatlar ta'limi, didaktik asoslar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, interaktiv metodlar, loyihaviy yondashuv, adabiy tahlil, aksiologiya, baholash kategoriyasi, individual qadriyatlar.*

Ona tili mashg'ulotlari bolalar shaxsining rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday darslar faqat tilga oid malakalarni hosil qilmay, balki qadriyatlarga doir tasavvurlarni ham shakllantiradi. Qadriyatlar deganda insonning

ma'naviy, axloqiy, madaniy hamda ijtimoiy qarash-me'yorlari anglashiladi; jumladan, vatanparvarlik, insonparvarlik, oila qadri, ekologik mas'uliyat kabi tamoyillar shular sirasidandir.

Hozirgi ta'lim tizimida qadriyatlar ta'limi umumjahon miqyosida dolzarb muammo sifatida ko'riladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020) hamda Milliy ta'lim dasturida ona tili darslari orqali ma'naviy tarbiya berish masalasiga alohida urg'u berilgan. Xususan, ona tili darsliklarida badiiy-adabiy materiallar orqali qadriyatlar mazmuni singdirib boriladi. Ushbu maqola qadriyatlar ta'limining didaktik asoslarini tahlil qilishga yo'naltirilib, unda nazariy hamda amaliy jihatlar qamrab olinadi. Asosiy maqsad o'qituvchilarga qadriyat tushunchalarini shakllantirishning samarali usullarini taklif etishdan iborat.

Qadriyatlar ta'limining muhimligi shundaki, u bolalar shaxsiyatini tarbiyalaydi va jamiyat barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Psixologik nuqtayi nazardan qadriyatga oid tasavvurlar kognitiv rivojlanish tarkibiga kiradi; Piaget ta'limotiga ko'ra, bolalar 7–11 yosh oralig'ida mavhum tushunchalarni o'zlashtira boshlaydilar. Ona tili darslari bu jarayon uchun qulay maydon hisoblanadi, chunki qadriyatlar aynan til orqali ifodalanadi va mustahkamlanadi. Masalan, she'rlar hamda ertaklar yordamida adolat va mehribonlik kabi tushunchalar bosqichma-bosqich shakllanadi.

Didaktik asoslar deganda o'quv jarayonining tamoyillari, usullari va vositalari tushunilib, ular ta'lim maqsadlariga mos bo'lishi lozim. O'zbek pedagogikasida mazkur yo'nalish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, ona tili o'qitish metodikasiga oid ishlarda turli didaktik yechimlar

yoritilgan. Mazkur maqolada nazariy asoslar, qo'llaniladigan usullar hamda amaliy misollar tahlil qilinadi.

Qadriyatlar ta'limining nazariy poydevori psixologiya, pedagogika va tilshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq. Psixologik jihatdan Vygotskiyning "proksimal rivojlanish zonasi" konsepsiyasi muhim: bunda o'qituvchi o'quvchining qadriyatga oid tushunchalarni o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Masalan, guruhli muhokamalarda insonparvarlik mazmuni tahlil qilinib, u ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali mustahkamlanadi.

Pedagogik yondashuvda didaktik tamoyillar, ya'ni faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va izchillik asosiy o'rin egallaydi. Faollik tamoyiliga ko'ra, o'quvchilar qadriyatlar haqida mustaqil va faol fikr yuritishlari zarur, masalan, badiiy matn tahlili jarayonida. Ko'rgazmalilik esa qadriyatlarni rasm, video va boshqa vizual vositalar orqali ifodalashni ko'zda tutadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qadriyatlar turli leksik birliklar orqali ifodalanadi. Ona tili darslarida lug'atni boyitish jarayonida "vatan", "oila qadri" singari tushunchalar mazmuni ham kengayadi. Grammatik tushunchalarni shakllantirish bo'yicha metodik qarashlar shuni ko'rsatadiki, tushunchalar izchil bosqichlarda berilishi lozim: avval ta'rif, so'ng misollar, undan keyin esa amaliy qo'llash.

Xalqaro tajribada, xususan, AQSh va Yevropa ta'lim amaliyotida til darslari mazmuniga qadriyatlar ta'limi integratsiya qilinadi. UNESCOning "Qadriyatlar ta'limi" dasturlarida til orqali madaniy merosni asrash g'oyasi alohida ta'kidlanadi. O'zbekistonda esa bu yo'nalish Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlari bilan

bog'liq bo'lsa-da, aynan ona tili darslarida u yanada aniq va amaliy ko'rinish kasb etadi.

Nazariy asoslarning muhim jihatlaridan biri individual yondashuvdir. Har bir o'quvchi o'zining madaniy tajribasi va ijtimoiy muhitiga ko'ra qadriyat tushunchalarini turlicha o'zlashtiradi. Masalan, shahar hamda qishloq bolalari oila qadriyatlarini turlicha talqin qilishi ehtimoli mavjud. Didaktika ana shu farqlarni inobatga olishni talab etadi.

Ona tili darslarida qadriyatlarni shakllantirishda interaktiv, loyihaviy va adabiy-tahliliy usullar keng qo'llanadi. Interaktiv usullar, masalan, muhokama va rol o'ynash o'quvchini faollashtiradi. Jumladan, "Navoiy asarlarida vatanparvarlik" mavzusida guruh muhokamasini tashkil etish qadriyat mazmunini kuchaytiradi. Loyihaviy usulda o'quvchilar muayyan loyiha bajaradilar, masalan, "Mening oilam qadriyatlari" mavzusida insho yoki taqdimot tayyorlash. Bu yondashuv didaktik tamoyillarga mos bo'lib, tizimlilikni ta'minlaydi: rejalashtirish, bajarish va baholash bosqichlari ketma-ket amalga oshiriladi. Adabiy-tahliliy usul esa ona tili darslarining asosiy yo'nalishlaridan sanalib, badiiy asarlar orqali qadriyatlar singdiriladi. Masalan, Cho'lpon she'rlari doirasida insonparvarlik g'oyalarini o'rganish mumkin. Grammatika hamda so'z yasashiga doir tushunchalarni o'rgatishda ham shunga yaqin metodlar qo'llanadi, biroq qadriyatlar masalasida badiiy matnlarning imkoniyati ustunroqdir.

Vositalar sifatida darsliklar, audio-vizual materiallar va axborot texnologiyalari xizmat qiladi. Zamonaviy darsliklarda qadriyatlarga oid mavzular integratsiyalashgan bo'lib, masalan, 5-sinf ona tili darsligida ekologik qadriyatlar mazmunini yorituvchi matnlar uchraydi. IT vositalari, jumladan, onlayn

platformalar va virtual ekskursiyalar qadriyatga oid tasavvurlar doirasini kengaytiradi.

Qo'llanilgan usullarning samaradorligi baholash jarayonida aniqlanadi. Masalan, testlar, yozma ishlar va insholar orqali o'quvchilarning qadriyatlar haqidagi tushunchalari darajasi tekshiriladi, bu esa didaktik tamoyillarning izchilligini ta'minlaydi. Didaktik asoslar amaliyotda shunday ko'rinadi: darsni rejalashtirishda qadriyatga yo'naltirilgan maqsadlar aniq belgilanishi zarur. Masalan, dars maqsadi "Adolat tushunchasini shakllantirish" bo'lsa, bosqichlar quyidagicha tashkil etiladi: motivatsiya (ertak o'qish), asosiy qism (mazmuniy tahlil), mustahkamlash (muhokama).

Qadriyat kategoriyasi turli fan yo'nalishlarida o'rganilgan bo'lsa-da, uning markaziy mazmuni va nazariy mohiyati avvalo falsafiy yondashuvlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan Reinhard Pauls qadriyat tushunchasining falsafiy tahlili qadimgi yunon falsafasiga, ayniqsa Aflotun davriga borib taqalishini qayd etadi. Aynan o'sha davrda qadriyatlar yaxshilik, haqiqat, go'zallik, fazilat, majburiyat, axloqiy va estetik mulohazalar doirasida muhokama qilingan. Ushbu tushunchaning nazariy poydevori antik davrdan XIX asrgacha bo'lgan davrda turli faylasuflar tomonidan izchil rivojlantirib borilgan.

Evgeniya A. Smolii va boshqa tadqiqotchilar fikriga ko'ra, XIX asr boshlarida qadriyatlar, qadriyat munosabatlari hamda ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni ko'plab ilmiy soha vakillarining diqqat markaziga aylangan bo'lsa-da, aksiologiya tarixining ildizlari qadimgi mutafakkirlar, xususan Suqrot faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ular "yaxshilik", "adolat", "go'zallik" kabi tushunchalarni oddiy mavhum kategoriyalar emas, balki muayyan qadriyatlar sifatida talqin

qilganlar. Biroq o'sha davrda qadriyatlarning tabiati va ularning iyerarxik tizimi yetarli darajada tahlil qilinmagan. Demak, qadriyat tushunchasi yangi hodisa emas, balki qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uning nazariy asoslari antik davrlardayoq vujudga kelgan, keyingi davrlarda esa konseptual mazmuni tobora boyib borgan. Qadriyatning murakkab tabiati va iyerarxik tuzilishiga oid masalalar asosan XX asrdan boshlab tizimli tarzda chuqur o'rganila boshlagan.

Falsafiy talqinda Mikhail Permilovski qadriyatni jamiyat va inson uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyat kasb etuvchi tashqi olam obyektlarining ma'lum ijtimoiy me'yorlar asosidagi qiymati sifatida izohlaydi. Uning fikricha, qadriyatlar inson faoliyatida qiziqishlar markazini belgilovchi muhim omil bo'lib, obyektiv borliqdagi narsa-hodisa va jarayonlarning ijobiy yoki salbiy qiymatini aks ettiradi hamda insonlar uchun yo'nalish beruvchi tayanch nuqta vazifasini bajaradi.

Qadriyat konsepti hamda uning o'lchov birliklari rivoji falsafa, ijtimoiy fanlar, xulq-atvor nazariyalari va iqtisodiyot doirasida ishlab chiqilgan qadriyat nazariyalariga tayanadi. Reinhard Pauls qadriyat nazariyalarini uch yo'nalishga ajratadi: deskriptiv (tavsiflovchi), normativ (me'yoriy) va meta-normativ. Tavsifiy nazariyalar qadriyatlar sohasidagi mavjud holatni ifodalaydi, ya'ni muayyan ijtimoiy guruh yoki jamiyat qanday qadriyatlarga ega ekanini ko'rsatadi va ko'proq ijtimoiy fanlar hamda xulq-atvor psixologiyasiga xosdir. Normativ nazariyalar esa qadriyatlar sohasida nima bo'lishi kerakligini belgilaydi, ya'ni shaxs yoki jamiyat uchun "yaxshi", "adolatli", "axloqiy" deb baholanishi mumkin bo'lgan xatti-harakat mezonlarini aniqlaydi. Meta-normativ nazariyalar qadriyat va qadrlash jarayonini tahlil qilib, "yaxshilik" va "qadriyat" mohiyati nimadan iboratligi, biror narsa yoki hodisani "qadrli" deb baholash nimani anglatishi hamda normativ

qarashlarni baholash mezonlari qanday belgilanishini ochib beradi. Bu yondashuvlar dastlabki ikki turdagi nazariyalar uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Shunday qilib, qadriyat tushunchasining mazmuni, konseptual tuzilishi va o'lchovlaridagi o'zgarishlar deskriptiv, normativ hamda meta-normativ nazariyalar orqali izohlanadi.

Alexandra Y. Aikhenvald qadriyatni ko'p qirrali tushuncha sifatida baholab, inson hayotida yaxshi, to'g'ri va orzu qilingan deb e'tirof etilgan holat va hodisalarning barchasi qadrlı sifatida baholanishini qayd etadi. Demak, qadriyatlar insonning hayotiy yo'lini belgilashda yo'naltiruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologiya va kognitiv fanlar vakili Shalom H. Schwartz esa qadriyatlarni inson xatti-harakatini tanlash, odamlar va voqealarni baholash hamda ushbu baholarning sabablarini izohlashga xizmat qiladigan zaruriy tushunchalar sifatida talqin etadi. Bu esa qadriyatlarning yo'naltiruvchi, baholovchi va izohlovchi funksiyalarini ham namoyon etadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, subyektivlik darajasiga, ya'ni kimga mansubligiga ko'ra qadriyatlarning individual yoki shaxsiy turlari mavjud. Bunday qadriyatlar umumiy madaniyat va shaxsiy tajriba asosida shakllanadi. Inson muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda yashar ekan, umumiy qadriyatlarga tayangan holda o'ziga xos individual qadriyatlar tizimini ham ishlab chiqadi. Shaxsning individual tajribasi hamda psixologik xususiyatlari qadriyatlarning shaxsiy turini alohida ajratishni taqozo etadi.

Gabriyel E. Idang individual qadriyatlarga to'xtalar ekan, insonlar voqelikni turlicha idrok etgani sababli ularning qadriyat tizimlari ham farqlanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hayot insonni doimiy tanlovga, hodisa va narsalarni

yaxshi yoki yomon sifatida baholashga hamda qadriyatlar shkalasini shakllantirishga undaydi. Inson voqelikni qanday qabul qilishiga qarab uni ma'qullashi yoki rad etishi, xatti-harakatlarni to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholashi, hatto estetik jihatdan chiroyli yoki xunuk deb xulosa chiqarishi mumkin. Bu esa qadriyat tushunchasining aksiologik mohiyatini yorqin namoyon etadi, chunki har qanday baho muayyan qiymatga tayangan holda yuzaga keladi.

Diana Iliyeva qadriyat va baholash kategoriyalarining uzviy bog'liqligini tahlil qilib, baholashni keng ma'noda nutq subyekti bilan nutq obyekti o'rtasidagi qadriyat munosabatlarining lisoniy ifodasi sifatida talqin etadi. Insonning atrof-muhitga qadrlil munosabati voqelik hodisalarini baholash jarayonida namoyon bo'ladi. Obyektlarning sifat va xususiyatlari ongda me'yor asosida qayta ishlanib, tilda ijobiy (ma'qullash), salbiy (inkor etish) yoki neytral (beparqlilik) munosabat ko'rinishida ifodalanadi: yaxshi — yomon — neytral. Yaxshi va yomon semantikasida baholash unsuri mavjud bo'lsa, neytral holat baholash nuqtayi nazaridan betaraf sanaladi. Mazkur aksiologik triada baholashning tilda ifodalanish mexanizmini belgilaydi: yaxshi — yomon — neytral. Demak, qadriyat va baholash o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining namoyon bo'lishiga zamin yaratadi: baho qadriyatning lisoniy ifodasi, qadriyat esa baholash jarayonining asosiy manbai sifatida ko'rinadi.

Aksiologik baholash kommunikativ vaziyat doirasida turli til birliklari, shuningdek, lingvistik va ekstralingvistik kontekstlar yordamida baholovchi mazmunni namoyon etuvchi gap va jumlarlar orqali ifodalanishi mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, baholash muayyan kommunikativ sharoitda til

vositalari ishtirokida, lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga chiqadi.

Barbara Rodziyevicz qadriyat tushunchasining yana bir muhim jihatini ko'rsatib, qadriyatlar faqat shaxs xatti-harakatining me'yoriy tomonini belgilab bermasdan, avvalo insonning subyektiv hissiyotlari uchun ham mas'ul ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qadriyatlar inson faoliyatini rag'batlantiradi, ijodiy salohiyatni safarbar etadi, shaxs istak va intilishlarini ifodalaydi; natijada inson rivojiga yo'nalish beradi hamda shaxsga o'zini va boshqalarni, shuningdek, o'zining hamda o'zgalarning tanlovlarini anglash imkonini yaratadi. Demak, qadriyatlar xatti-harakatning normativ mezonlarini belgilash bilan birga, shaxs subyektivligini ifodalovchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi va insonning tanlovlarni tushunishiga ko'maklashadi. Shu bois qadriyatlar inson faoliyatining turli sohalariga singib, uni qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Tatyana V. Evsyukova ham qadriyatni inson idroki va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi standart sifatida sharhlab, madaniyatning me'yoriy-qiymatli tushunchalarini o'rganish orqali dunyoning aksiologik manzarasidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash mumkinligini qayd etadi. Qadriyatlar madaniy o'lchovning poydevorini tashkil etib, madaniy o'ziga xoslikni belgilovchi hodisalarning mohiyatini ochadi. Shu bilan birga, qadriyatlar jamiyat, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxs uchun ideal maqsad sifatida qaralib, ijtimoiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi va hodisa hamda harakatlarni baholashda tayanch nuqtaga aylanadi. Demak, qadriyatlar madaniyat bilan uzviy bog'liq holda jamiyatning ideal maqsadlarini ifodalaydi hamda ijtimoiy munosabatlar va xatti-

harakatlarni baholash mezonlari sifatida namoyon bo'ladi, bu esa qadriyatning aksiologik kategoriya sifatidagi mohiyatini tasdiqlaydi.

Samuel L. Hart qadriyatning inson hayotidagi o'rnini izohlar ekan, odamlarning ehtirolari, qiziqishlari va maqsadga yo'naltirilgan harakatlari ortida ularning qadrliligi yoki arziqliligi ekanligiga bo'lgan ishonch yotishini ta'kidlaydi. Insonlar narsalar va maqsadlarga turli darajada ahamiyat beradi, shu bois ular yaxshi va yomon maqsadlar, ezgu va yovuz amallar, go'zal va xunuk narsalar, pok niyat va yomon istaklar haqida mulohaza yuritadilar. Inson hayoti tortishish va itarilish jarayonlari o'rtasida kechadi, hodisalar esa jozibali yoki jirkanch bo'lishi mumkin. Demak, qadriyat tushunchasi hayotni go'yo ikki qarama-qarshi qutbga ajratib turadi va hayot oppozitsiyalar asosida idrok etilayotgandek tasavvur uyg'otadi. Bu jarayonda inson borliqligini qadriyatlar orqali anglashining ahamiyati katta bo'lib, hayotning ongda ikki tomonlama aks etishi qadriyatlarning aksiologik tabiatiga bog'liqligini ravishda yuzaga keladi, deyish mumkin.

David Graeber qadriyatlarni insonlar nimani xohlashi lozimligi haqidagi mezonlar majmuasi sifatida baholab, aynan shu mezonlar asosida odamlar o'z istaklarini qonuniy va qadrliligi yoki qonuniy, ammo qadrsiz kabi toifalarga ajratishini ko'rsatadi. Shunday qilib, qadriyatlar hayotning bevosita ma'nosi bo'lishi shart emas, biroq insonlarning xohish-istaklari haqidagi tasavvurlarini ifodalovchi g'oyalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, qadriyatlar insonga o'z istaklarini qadrliligi yoki qadrsiz, qonuniy yoki noqonuniy tarzda farqlab baholash imkonini beruvchi tushunchalardir. Demak, qadriyatlar nima to'g'ri, ya'ni qonuniy va qadrliligi, nima esa noto'g'ri, ya'ni noqonuniy va qadrsiz ekanini ko'rsatib beradigan aksiologik kategoriya sifatida qaraladi. Shu

bilan birga, Sergey Evgeniyevich Yachin qadriyatlarning aksiologik mohiyatini izohlar ekan, qadriyatlar inson subyektivligi bilan uning olamga munosabatlari o'rtasidagi chegara sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Binobarin, qadriyatlar insonning borliqqa nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalovchi muhim tushuncha sifatida talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aikhenvald A. Y. The Value of Language and the Language of Value. A View from Amazonia, Journal of Ethnographic Theory 3 (2), 2013, pp. 53–77.
2. Evsyukova T. V. et al. Axiological World Picture of the Virtual Language Personality in Blog-Discourse Space, European Research Studies Journal, Volume 20, Issue 3B, 2017, pp. 342-354.
3. Graeber D. Toward an Anthropological Theory of Value. The False Coin of Our Own Dreams, New York: Palgrave Macmillan, 2001, 317 p.
4. Hart S. L. Axiology – Theory of Values, International Phenomenological Society. Philosophy and Phenomenological Research, Vol. 32, No. 1, 1971 (updated 2020), pp. 29-41.
5. Idang G. E. African Culture and Values, University of South Africa, Phronimon, Volume 16, No. 2, 2015, pp. 97-111.
6. Ilieva D. Axiological Aspects in Language, Proceedings of University of Ruse, 2017, Volume 56, Book 5.2, pp. 24-28.
7. Permilovski M. The Axiological Approach to the Regulation of the Right to a Favourable Environment, Arctic Review on Law and Politics, Vol. 3,

2/2012, pp. 162-185.

8. Reinhard P. Concepts of Value: A Multi-Disciplinary Clarification. – New Zealand: Centre for Resource Management, 1990, 76 p.

9. Rodziewicz B. Values, Their Hierarchy and Understanding among Polish, Russian, and German Students, Ethnolinguistic 28, 2017, pp. 141-152.

10. Schwartz S. H. A Theory of Cultural Values and Some Implications for Work, Applied Psychology: An International Review, 1999, 48 (1), pp. 23–47.

11. Smoli E. A. and et al. About Values as a Factor in Language and Culture, Laplage em Revista (International), Vol.7, N. Extra D, 2021, pp. 575-581.

12. Yachin S. E. Critique of Axiological Reason: Why the Idea of Values Has Achieved the Totality in Modern Culture, International Journal of Philosophy, 2019, 7(1), pp. 31-40.